



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo



OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 3-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## SHEVALARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Alisherova Masuma Valijon qizi

University Of Business and Science universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Unda o‘zbek tilining turli hududlarida qo‘llaniladigan shevalarda gap qurilishi, so‘z tartibi, ergash va bosh gap munosabatlari, bog‘lovchi vositalar, yuklamalar hamda yordamchi so‘zlarning ishlatilishidagi o‘ziga xos jihatlar ochib beriladi. Shuningdek, sodda va qo‘shma gaplarning tuzilishi, so‘roq, buyruq va undov gaplarning shevalarga xos shakllari misollar asosida yoritiladi. Maqolada shevalar sintaksisining adabiy til sintaksisidan farqli tomonlari, umumiy va o‘xshash jihatlari ham qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan sintaktik o‘zgarishlar, qo‘shni tillar ta‘siri hamda og‘zaki nutq omilining roli alohida e‘tiborga olinadi. O‘zbek shevalarining sintaktik tizimi milliy tilning boyligi, uning ichki imkoniyatlari va hududiy rang-barangligini aks ettiruvchi muhim hodisa sifatida baholanadi. Shuningdek, shevalarning adabiy tilni boyitishdagi o‘rni, ularni o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** sintaksis, o‘zbek shevalari, sintaksis, gap tuzilishi, so‘z tartibi, o‘zaro so‘zlashuv, kesimning ifodalanishi, eganing ifodalanishi.

**Аннотация.** В данной статье всесторонне анализируются синтаксические особенности узбекских говоров. В ней раскрываются специфические черты построения предложений, порядка слов, отношений между главным и придаточным предложениями, средств связи, частиц и вспомогательных слов, используемых в говорах различных регионов узбекского языка. Также на основе примеров освещаются особенности структуры простых и сложных предложений, а также формы вопросительных, повелительных и восклицательных предложений, характерные для говоров. В статье проводится сравнительный анализ отличительных, общих и сходных сторон синтаксиса говоров по сравнению с синтаксисом литературного языка.

В ходе исследования особое внимание уделяется синтаксическим изменениям, возникшим в процессе исторического развития, влиянию соседних языков, а также роли устной речи. Синтаксическая система узбекских говоров рассматривается как важное явление, отражающее богатство национального языка, его внутренние возможности и территориальное разнообразие. Также обосновывается роль говоров в обогащении литературного языка и теоретическое и практическое значение их изучения.

**Ключевые слова:** синтаксис, узбекские говоры, синтаксис, построение предложения, порядок слов, согласование, выражение сказуемого, выражение подлежащего.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the syntactic features of Uzbek dialects. It reveals the specific characteristics of sentence structure, word order, relationships between main and subordinate clauses, connecting elements, particles, and auxiliary words used in dialects across different regions of the Uzbek language. The structure of simple and complex sentences, as well as the dialect-specific forms of interrogative, imperative, and exclamatory sentences, are illustrated with examples. The article also presents a comparative analysis of the distinctive, common, and similar aspects of dialect syntax in relation to the syntax of the literary language.

During the research, special attention is paid to syntactic changes that emerged in the course of historical development, the influence of neighboring languages, and the role of oral speech. The syntactic system of Uzbek dialects is evaluated as an important phenomenon reflecting the richness of the national language, its internal potential, and its regional diversity. The role of dialects in enriching the literary language, as well as the theoretical and practical significance of studying them, is also substantiated.

**Keywords:** syntax, Uzbek dialects, syntax, sentence structure, word order, agreement, expression of the predicate, expression of the subject.

**Kirish.** O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining boy tarixiy taraqqiyoti va hududiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Tilning ana shu rang-barangligi, avvalo, shevalarda o‘z aksini topadi. O‘zbek shevalari fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda, sintaktik jihatdan ham o‘ziga xos tizimga ega. Ayniqsa, gap qurilishi, so‘z tartibi, bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishi hamda sodda va qo‘shma gaplarning shakllanishida sezilarli farqlar kuzatiladi.

Shevalar sintaksisini o‘rganish adabiy tilning rivojlanish manbalarini aniqlash, uning ichki imkoniyatlarini ochib berish hamda til tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Chunki shevalarda qadimiy til unsurlari saqlanib qolgan bo‘lib, ular til taraqqiyotining oldingi bosqichlari haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Shu bilan birga, og‘zaki nutqqa xos erkinlik shevalarda sintaktik shakllarning xilma-xilligini yuzaga keltiradi.

Til odamlar orasida fikr almashish vositasi bo‘lsa, nutq esa ana shu fikr almashish vositasining ro‘yobga chiqishi va til materiallaridan foydalanish jarayonidir. Fikr almashish nutqning ilmiy, badiiy va o‘zaro so‘zlashuv uslublari orqali amalga oshadi. O‘zaro so‘zlashuv nutqining adabiy uslubi bilan bir qatorda, mahalliy hududlarga xos shakllari ham mavjud.

Shevalar sintaksisi o‘zbek dialektologiyasining nisbatan yangi va hali yetarli darajada o‘rganilmagan sohalaridan biri hisoblanadi. Chunki shevalarning o‘ziga

xos farqli jihatlari ularning fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik tizimlarida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida mahalliy hududlardagi aholi nutqining fonetik, morfologik va leksik tomonlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, so'zlashuv nutqining mahalliy sharoitga xos shakllari bilan adabiy og'zaki nutq o'rtasidagi o'zaro aloqa va farqlar yetarlicha tadqiq etilmagan.

**Adabiyotlar tahlili.** Rus tilshunosligida bu masala akademik Viktor Vinogradov tomonidan o'rganilgan bo'lib, u nutqning og'zaki shakli o'ziga xos uslubga ega ekanligini ta'kidlaydi[1, 56]. Bu fikr o'zbek tiliga ham bevosita aloqador, chunki o'zbek shevalarining bugungi kundagi farqli xususiyatlarini hisobga olish zarur. Nutqning adabiy shakli bilan bir qatorda, o'zaro so'zlashuvga xos og'zaki shakl ham mavjud bo'lib, u o'ziga xos, takrorlanmas uslubiy xususiyatlarga ega.

Dialektal nutqda mahalliy aholiga xos pauza, intonatsiya, turli ifoda vositalari hamda o'zaro tushunishga xizmat qiluvchi nutq shakllari namoyon bo'ladi. Bunday nutqda savol-javob jarayoni tabiiy kechadi, ortiqcha replikalar kam uchraydi, suhbat vaziyatga mos ravishda qisqa va lo'nda bo'ladi. Shuningdek, unda emotsionallik, gap bo'laklarining urg'u va pauza orqali ajratilishi, bo'g'in va taktlarning alohida ifodalanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, birikma, fraza, sodda va qo'shma gaplarni alohida ohang bilan aytish holatlari ham mavjud.

Dialektal nutq odatda maxsus tayyorgarliksiz, dialog shaklida yuzaga keladi. Shu sababli so'zlovchi nutq jarayonida ma'lum erkinlikka ega bo'ladi. Bunday nutqda to'liqsiz gaplar tarixiy jihatdan shakllangan bo'lib, unda ifodalilik, ekspressivlik hamda intonatsion tugallik muhim o'rin tutadi.

Gap bo'laklari.

Namangan guruhi shevalarida ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Bu hudud shevalarida gapning kesimi ko'pincha fe'lning qisqargan shakllari, shuningdek, og'zaki nutqqa xos intonatsiya orqali ifodalanadi. Ba'zan kesim tarkibidagi shaxs-son qo'shimchalari tushib qoladi yoki qisqaradi: Men bordim → Man bordim / Man bordum, Sen kelasan → San kelasang / San kelasan kabi.

Namangan shevasida kesimning ifodalanishi quyidagi holatlarda kuzatiladi:

Fe'l kesim:

Man bazarga bordum, san üydä qaldıñ.

“Bor/yo‘q” kesim:

Pul bar, vaxt yo‘q.

Sifat kesim:

Bu yärlär juda yaxşı, adamlar mehriban.

Olmosh kesim:

Kelayatqan özi, kutayatqan biz.

Son kesim:

Biz üctä, ular beýstä.

Infinitiv kesim:

Maqsadim işləmaq, oqımaq.

Harakat oti kesim:

Köp yürüş — çarçaş.

Ravish kesim:

U tez, bu sekin.

Egarning ifodalanishi:

Ot ega:

Adam kelädi, gap başlanädi.

Sifat ega:

Yaxşı yürär, yaman qolar.

Son ega:

Ikkitä ketti, bittäsı qaldı.

Olmosh ega:

Man aytdum, san eşittı.

Sifatdosh ega:

Kelgän gapirädi, kelmägän kutädi.

Infinitiv ega:

Kutmaq qiyın, yetmäk asan emäs.

Harakat oti ega:

Köp gapiriş — foydasız.

O'zbek tilidagi adabiy tili va shevalarda qo'shma gaplarning komponentlari adabiy til bilan keskin farq qilmaydi. Qo'shma gaplarning eng ko'p uchraydigan shakli ikki komponentdan iborat bo'lgan gaplardir. Ularning uch va to'rt komponentdan tashkil topgan shakllari ham mavjud, lekin kamroq uchraydi.

Misollar:

Ikki komponentli qo'shma gap:

G'ava bulit bo'ldi, dag'in gunem savip getti.

Damaqi o'rtağa alip yeymökə aylanishiylar (ovqatni tayyor qilib yey), ekkän xirman etör, ekmögän ärman etör.

Uch komponentli qo'shma gap:

Ayttim, hazir gälädi, bir zamin o'tiring.

To'rt komponentli qo'shma gap:

Axsham bulut boldi, paxtani yag' navedik, yiqmadi, yaxshi voldi.

Besh komponentli qo'shma gap:

Uyga girip: "Anavi qana?" — dedi, hazir gälädi, dedim.

Gap ichida paralel sintaktik konstruktsiyalar ham uchraydi, ular bir-biriga yaqin ma'noni anglatuvchi va gapda bir xil vazifani bajaruvchi elementlarni tashkil qiladi. Masalan:

Qating og'riydi?

Ne:ring ag'riydi?

Kennəyim kelvətilə — gelimbiyim gəyyətillə — yəngəm keləptilə.

Qayqlarim yəjjən chыqđb // Gorgən əzəplərim unut boldi...

Shuningdek, paxta terish jarayoniga oid misollar orqali qo'shma gaplar va paralel sintaksis namoyon bo'ladi:

Men birtudan pəxtə tərdim.

Men dim kop pəxtə tərdim.

Men yer qaraqan pəxtə tərdim.

Men yer djəhən paxta tərdim.

Men yer xiri pəxtə tərdim.

Bu misollar adabiy til va Namangan kabi shevalarda qo'shma gaplarning tuzilishi va komponentlarning sintaktik o'ziga xosligini ko'rsatadi. Qo'shma gaplar ko'pincha sodda gaplardan tashkil topadi, lekin paralel konstruksiyalar, intonatsiya va urg'u orqali nutq boyligi oshiriladi.

2. Sheva matnlarida sodda gaplar va gap bo'laklari inversiyasi (Namangan shevasi)

Namangan shevasida sodda gaplar ko'proq qo'llanadi. Shunday bo'lsa-da, ularni har doim aniq chegaralab olish qiyin. Ayniqsa, gap bo'laklari inversiyasi (gap bo'laklarining tartibi odatdagidan farq qilishi) keng uchraydi.

Misollar:

1.Бір күн біз келдік Һәсән жайға

Bir kün biz keldik Häsän žajğa

2.Соңра мен отирдим чой ичип

Soŋra men otirdim čoy ičip

So'z birikmalari. Shevalarda so'z birikmalarning barcha turlari qayd qilinadi

Namangan shevasiga oid misollar

Bitishuv:

Дәстәхөндә йетмиш хъл овқат тайёр бопть

dästəxändä jetmiş xil ävqat tajyār bopti

(Ovqat tayyor bo'ldi — Namangan)

Boshqaruv 1:

Мән хәссәмmä ап чыккый

Män hässämmi äp čiqij

(Men xonamdan chiqay — Namangan)

Boshqaruv 2:

Пäs-пäs тамдан қар явар

Päs-päs tamdän qar javar

(Pas-pas tamdan qar beradi — Namangan)

Boshqaruv 3 (non chiqarish):

Нан чиқарди

Nan čiyärdi

(Non chiqar — Namangan)

Moslashuv:

Хәсәнниң атаси байларниң қолуда навча боп өткән

Häsänniñ atäsi bajlärniñ qoludā navčā bop ötkän

(Häsänning otasi baylarning qoldig‘ida navcha bo‘lib o‘tgan.

Dialektal sintaksis dialogik jarayonlarga asoslanganligi sababli unda qisqalik va ixchamlik kabi xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Tilimizdagi shevalar va dialekt (lahja)larning sintaktik xususiyatlarini aniqlash, ularni o‘rganish va qiyosiy hamda tarixiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish juda zarurdir.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot orqali Namangan shevasining sintaktik xususiyatlari, gap bo‘laklari va qo‘shma gaplarning shakllanishi batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dialektal sintaksis dialogik jarayonlarga asoslangan, shuning uchun unda gaplar qisqa, ixcham va sodda shakllarda ifodalanadi. Gap bo‘laklarining tartibi (inversiya), urg‘u va pauza orqali nutqning emotsionalligi, tabiiy ritmi va dialogik xususiyati oshiriladi.

Namangan shevasida bitishuv, boshqaruv va moslashuv vazifalari ko‘pincha fe‘l, harakat oti va sodda gaplar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, shaxs-son qo‘shimchalari ba‘zan qisqaradi, gap bo‘laklari esa inversiyaga uchraydi, bu esa nutqni yanada tabiiy va dialogik qiladi. Misollar orqali ko‘rsatildiki, qo‘shma gaplar ikki, uch, to‘rt yoki besh komponentdan iborat bo‘lishi mumkin. Paxta terish, ovqat tayyorlash va kundalik faoliyatlarni ifodalovchi gaplarda esa paralel konstruktsiyalar va inversiya keng qo‘llanadi.

Shevalar va dialektlarning sintaksisini o‘rganish, ularni qiyosiy va tarixiy-tahliliy usullar bilan tahlil qilish tilning hududiy rang-barangligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o‘zbek tilshunosligi uchun nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, adabiy til bilan shevalarning o‘zaro bog‘liqligi va farqliligini yoritadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Namangan shevasidagi gap bo‘laklari, qo‘shma gaplar va sodda gaplar orqali nutq boyligi, emotsionallik va dialogik tabiati yanada oshadi, bu esa shevalarning adabiy tilga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi. Shu sababli, shevalarni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir.

Namangan shevasining sintaksisi o‘zbek tilining hududiy rang-barangligini yoritishda muhim manba bo‘lib, tilshunoslik tadqiqotlarida nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turopova M. O‘zbek shevalari sintaksisi. T., Fan, 1984.
2. Mirzayev M. Buxoro shevasining ba‘zi sintaktik xususiyatlari // O‘zbek tili grammatik qurilishining leksikologiyasi va dialektologiyasi masalalari. S., 1976. 7-15-betlar.
3. Egamov V. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. S., 1973. 130.
4. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutq sintaksisi masalalari. T., 1974.
5. O‘rinboyev B., Jo‘rayev X. O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining grammatik xususiyatlari. T., Fan, 1985. 76-bet.
6. Abdullayev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T., Fan, 1978.
7. Jumanazarov Yu. O‘zbek tili janubiy Xorazm (o‘g‘uz) dialektining sintaktik tuzulishi. T., Fan, 1976.